

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida "Ta'lim muassasalarida giyohvandlikni oldini olish va unga qarshi kuash", "Yoshlarning huquqiy savodxonliklarini oshirishga ko'maklashish va turli huquqbuzarliklarni oldini olish" mavzularida o'tkazilgan profilaktik tadbir

B A Y O N N O M A S I

2025-yil 24 sentabr

Istiqbol binosi 201-xona

Raislik qiluvchi: N.Kodirov -Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori

Kotib: F.Ismagilova- universitet katta tyutori,

Qatnashdilar: Mirobod tumani IIOFMB boshligining 1-o'rinbosari- .A.Aydarov, Mirobod tumani IIOFMB XPB xodimlari X.Isaev, V.Naberaeva, Mirobod tumani IIOFMB JKKB xodimi X.Tursunov, Mirobod tumani IIOFMB Tergovchisi D.Xadjaev, TXVU rektori maslahatchisi, R.Mansurbayev, universitet pedagog hodimlar va 82 nafar talaba yoshlar

KUN TARTIBI:

1. TXVUda tahsil oluvchi talaba-yoshlar o'rtasida giyohvandlikni oldini olish va unga qarshi kuash to'g'risida.
2. TXVUda tahsil oluvchi talaba-yoshlarning huquqiy savodxonliklarini oshirishga ko'maklashish turli huquqbuzarliklarni oldini olish to'g'risida.

2025-yil 24 sentyabr kuni Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetida Mirobod tumani IIOFMB boshligining 1-uribosari- .A.Aydarov, Mirobod tumani IIOFMB XPB xodimlari X.Isaev, V.Naberaeva, Mirobod tumani IIOFMB JKKB xodimi X.Tursunov, Mirobod tumani IOFMB Tergovchisi D.Xadjaevlar ishtirokida talabalar orasida huquqiy madaniyatni oshirish, qonunlarga rioya qilishning ahamiyatini tushuntirish, huquqbuzarlikning oldini olish hamda giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida keng qamrovli tushunchalar berish maqsadida davra suhbatlari tashkillashtirildi. Tadbirga TXVU Yoshlar masalalari va MMIB birinchi prorektori N.Kadirov raislik qildi. Raislik qiluvchi yig'ilganlarni yig'ilish ishtirokchilari va kun tartibidagi masalalar bilan tanishtirdi.



Shundan so'ng so'z Mirobod tumani IIOFMB boshligining 1-o'rinbosari A.A.Aydarovga berildi. A.Aydarov giyohvandlik va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari yuzasidan mutaxassis sifatida quyidagi muhim jihatlarga to'xtaldi:

“Bugungi kunda yoshlar orasida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning asosiy sabablari - e’tiborsizlik, yetarli nazoratning yo‘qligi va noto‘g‘ri ijtimoiy muhitdir. Giyohvandlikning tarqalishi individual muammogina emas, balki jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi omildir. Giyohvand moddalarning sog‘liq uchun zararliligi, ya‘ni asab tizimi buzilishi, xotira pasayishi, miyada qon aylanishi yomonlashishi, aqliy zaiflashishi. Ichki a‘zolar shikastlanishi, jigar, yurak, buyrak, o‘pka kasalliklari, Immunitet pasayishi: turli yuqumli kasalliklarga (masalan, OITS, gepatit) chalinish xavfi ortadi. Tez qarish: teri qurishi, tishlar to‘kilishi, tashqi ko‘rinishning o‘zgarishi. O‘lim xavfi: haddan tashqari doza qabul qilish hayot uchun bevosita xavf tug‘diradi. Qattiq ruhiy qaramlik: moddani qabul qilmaslik tashvish, qo‘rquv, g‘azab va depressiyani kuchaytiradi. Shaxsiy tanazzul: irodasizlik, yolg‘on gapirish, oila va do‘stlar bilan munosabatning buzilishi. Agressiya va jinoyatchilik: moddaga pul topish uchun noqonuniy ishlar qilishga majbur bo‘lish. Ijtimoiy zarar O‘qish yoki ish faoliyatining izdan chiqishi, jamiyatdan ajralish. Jinoyatchilikning ko‘payishi, oilalarning buzilishi. Davlat iqtisodiga zarar – davolash va jinoyatlarning oldini olish uchun katta mablag‘ talab qilinishi haqida gapirdi.



Mirobod tumani IIOFMB Tergovchisi D.Xadjaev bugungi kunda yoshlarning turli yot g'oyalarga chalg'ib qolishlari natijasida jismoniy nosog'lomlik, ya'ni giyohvand moddalar miya, yurak, jigar, o'pka va buyraklarga qattiq zarar etkazishi. Ruhiy buzilishlar: depressiya, xavotir, paranoyya va gallyusinasiyalarni keltirib chiqarishi, yoshlar irodaviy zaiflikka duchor bo'lishlari va hayotga qiziqishini yo'qotishlari, ortiqcha doza qabul qilish (peredozirovka) o'limga olib kelishi mumkinligi, Ijtimoiy oqibatlar ya'ni oilaviy munosabatlarning buzilishi, giyohvandlik oiladagi ishonchni yo'qotishi, yaqinlari bilan aloqalar uzilishiga sabab bo'lishi, o'qish va ishda muammolar kelib chiqishi, ta'limda pasayish, jamiyatda obro'ning yo'qolishi kuzatilishi, yolg'izlanish, jamiyatdan chetlatilib, salbiy muhitdagi odamlar bilan muloqot kuchayishi, jinoiy javobgarlik, giyohvand moddalarni sotish, saqlash yoki iste'mol qilish qonunga zid hisoblanadi. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra bu necha yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkinligi bu esa shaxsiy hayotga ta'sir qilishi yoshlarning kelajak rejalari yo'qolaishi, ta'lim va ish orqali jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyati keskin kamayishiga olib kelishu mumkin" degan fikrlarni bildirdi. Shuningdek, talabalar o'rtasida uchraydigan huquqbuzarliklarning boshqa turlari, ularning huquqiy oqibatlari va kelajak uchun xavfli tomonlari haqida batafsil ma'ruza qilindi.

Tadbir davomida yoshlarga qonunlarga hurmat bilan qarash, sogʻlom turmush tarzini tanlash, giyohvandlikning har qanday koʻrinishidan yiroq boʻlish va huquqbuzarlikni oldini olishda faollik koʻrsatish boʻyicha tavsiyalar berildi.



Shundan soʻng raislik qiluvchi navbatni talabalar bilan mavzu yuzasidan berilgan savol-javoblarga berdi. Talabalar tomonidan berilgan savollarga mehmonlar tegishli javoblar berdilar.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan holda

QAROR QILINDI:

1. TXVUda tahsil oluvchi talaba yoshlar oʻrtasida huquqiy savodxonlikni oshirish va ularning qonunlarga rioya qilishga boʻlgan munosabatini mustahkamlash maqsadida soha vakillari ishtirokidagi yigʻilishlarni doimiy oʻtkazib borilsin.
2. TXVUda talaba-yoshlar “Sogʻlom turmush tarzi – bizning tanlovimiz” mavzusida davra suhbatlari tashkil etilsin.
3. Huquqbuzarliklarning oldini olish boʻyicha tushuntirish ishlari olib borish va bu borada yoshlarni faol ishtirokchi sifatida jalb etishga erishilsin.
4. Giyohvandlikning salbiy oqibatlari haqida profilaktik tadbirlar (film namoyishlari, targʻibot aksiyalari, uchrashuvlar) tashkil etilsin.
5. TXVUda tahsil oluvchi talaba yoshlarni boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida turli tanlov va musobaqalarni doimiy oʻtkazib borishga erishilsin.
6. Targʻibot ishlari uchun ijtimoiy tarmoqlarda videoroliklar, maqolalar joylashtirish yoʻlga qoʻyilsin.

Yigʻilish raisi:

N.Kodirov -Yoshlar masalalari va MMIB
birinchi prorektori

Kotib:

F.Ismagilova -universitet katta tyutori